

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ILOVA TO'PLAM: GEOGRAFIYA

A.A.Xamidov

Geoekologik muammolar va ularning yechimiga oid kontseptsiyalar (Farg'ona vodiysi misolida) 263

Z.X.Madaminov, M.R.Mahammadova

Iste'molni taddiq etish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholash metodlari..... 268

M.N.Xabibullayeva

Andijon viloyati ma'muriy tumanlari va markazlarining toponomik taxlili..... 272

K.K.Uzakbaev

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining joylashuv tizimi xizmat ko'rsatish sohalari hududiy rivojlanishining omili sifatida..... 280

F.N.Alimjanov

Global iqlim o'zgarishi sharoitida talabalarni ekologik faolligini oshirishni pedagogik omillari...288

S.M.O'ktamova

Shohimardonsov daryo havzasi antropogen landshaftlaridagi geoekologik holat va oqibatlarini baholash masalalari 292

Sh.Sh.No'monov, M.A.Badalova

Hududlarni barqaror rivojlantirishda yerdan foydalanishning o'rni..... 297

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 303

B.S.Tojidinov

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash usullari 306

N.A.Fattoxov, S.T.Sobirova

Antropogen omilning shaharlar geoekologik vaziyatiga ta'siri (Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi misolida) 312

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING JOYLASHUV TIZIMI XIZMAT
KO'RSATISH SOHALARI HUDUDIY RIVOJLANISHINING OMILI SIFATIDA**

**СИСТЕМА РАЗМЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН КАК ФАКТОР
ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СФЕР УСЛУГ**

**POPULATION PLACEMENT SYSTEM OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN AS
A FACTOR OF TERRITORIAL DEVELOPMENT OF SERVICE SPHERES**

Uzakbaev Koblan Keunimjay uli¹

¹Nukus davlat pedagogika instituti
geografiya o'qitish metodikasi kafedrasi assistent o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi joylashuvining aholiga xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etishga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston ma'muriy-hududiy birlıkları bo'yicha aholi soni va uning dinamikasi, tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish va migratsiya jarayonlarining farqlanishi tahlil qilangan.

Аннотация

В статье рассматривается воздействие размещения населения Республики Каракалпакстан на территориальную организацию обслуживания населения. Рассмотрены численность населения и его динамика, дифференциация рождаемости, смертности, естественного воспроизводства и миграционных процессов по административно-территориальным единицам Каракалпакстана.

Abstract

The article examines the impact of the placement of the population of the Republic of Karakalpakstan on the territorial organization of services to the population. The population size and its dynamics, differentiation of fertility, mortality, natural reproduction and migration processes across the administrative-territorial units of Karakalpakstan are considered.

Kalit so'zlar: aholi, aholi joylashuvi, aholi soni, tug'ilish, o'lim, aholining tabiiy ko'payishi, migratsiya, xizmat ko'rsatish sohalari.

Ключевые слова: население, размещение населения, численность населения, рождаемость, смертность, естественный прирост населения, миграция, сфера услуг.

Key words: population, population distribution, population size, fertility, mortality, natural population growth, migration, service sector.

KIRISH

Ma'lum bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan o'rganishda ularning nafaqat geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, maydoni, balki aholisining joylashuv tizimi, unga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi aholi soni, aholining tabiiy hamda mexanik harakati, yosh-jins tarkibi, milliy tarkibi kabi jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki, aholi tabiat va jamiyatning o'zaro aloqa, munosabatlarda asosiy, birlamchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, u bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqaruvchi kuch, ham moddiy va ma'naviy boyliklarning iste'molchisi hisoblanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishning uzlucksiz davom etishi, uning rivojlanishi uchun aholi soni va uning muntazam o'sib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada amerikalik olim U.Ayzardning fikricha, u yoki bu hududning xo'jaligi murakkab jumboq bo'lib, uni yechishni aynan aholi bo'g'inidan boshlamoq kerak. Darhaqiqat, aholi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriadir, u bilan ishlab chiqarish "boshdan oyoq", chambarchas bog'liq [5; 6].

Ta'kidlash joizki, respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillardanoq aholining turmush darajasini oshirishga, unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni tubdan isloh qilish, yangi boshqaruva shaklining bozor iqtisodiyoti talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu borada respublika hukumati tomonidan ijtimoiy sohalari rivojiga oid maxsus dastur, ko'rsatma, qaror va farmonlar ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq etilayotgani ijobjiy natijalar bermoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilova 53-maqsadida "aholi uchun kafolatlangan ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish" bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022–2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning "o'sish nuqtalari"ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari ko'ssatib berilgan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda aholi joylashuvi, aholi manzilgohlari va ular bilan bog'liq geografik va demografik muammolar ayrim olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritib berilgan. Ular jumlasiga G.R.Asanovning Namangan viloyati aholisining joylashuvi (1975), S.A.Kovalev, E.Toshbekov, T.Valiyevalar tomonidan Buxoro va Samarcand viloyati aholi manzilgohlarini o'rganishga bag'ishlangan (1963) asarlarini kiritish mumkin. Shuningdek, mustaqillik yillarida R.Y.Mahamadaliyevning Toshkent viloyati qishloqlarining shakllanishi va rivojlanishi (1993), M.I.Nazarovning Namangan viloyati qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'stish masalalari (1996), Z.N.Tojiyevaning Jizzax viloyati aholisining o'sishi va joylashishida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (1998), Sh.Jumaxonovning (1998) Namangan va M.Qodirovning (1994) Samarcand viloyati aholisining hududiy tashkil etilishi, H.A.Abduvejnovning (2020) Aholining hududiy tashkil etilishini landshaft omili asosida takomillashtirish (Farg'ona vodiysi misolda) mavzusidagi dissertatsiyalari ham e'tiborga loyiq.

Bundan tashqari, respublikamizda ushbu masalalar bilan umumiylar tarzda M.K.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, R.Ubaydullayeva, X.S.Salimov, E.A.Axmedov, A.S.Soliyev, O.B.Otamirzayev, A.A.Qayumov, Sh.B.Imomov, I.I.Safarovlar ham shug'ullanishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 2002,7 ming kishini tashkil etgan bo'lib, oldingi yilga nisbatan 26,5 ming kishiga (1,3 % ga) ko'paygan [10]. Bu ko'rsatkich 1990-yil 1-yanvar holatiga ko'ra esa, 1241,5 ming kishi bo'lgan. Demak, Qoraqalpog'iston aholisi o'tgan 34 yil davomida 761,2 ming kishiga, ya'ni yiliga o'rta hisobda 22,4 ming kishidan ko'paygan (1-jadval).

Aytish joizki, aholining ko'payishi barcha davrlarda bir xilda kechmagan. Masalan, 1990–2000-yillar 10 yil maboynida 261,5 ming kishiga yoki o'rta hisobda yiliga 26,1 ming kishidan ko'payib borgan. 2000–2010-yillarda esa mazkur ko'rsatkich 12,9 ming kishidan to'g'ri kelgan. Keyingi 10 yillikda esa respublika aholisining ko'payishi yiliga o'rta hisobda 39,5 ming kishidan to'g'ri kelgan.

Ta'kidlash joizki, Qoraqalpog'iston qishloq tumanlari aholi sonining o'sish sur'ati bo'yicha biridan keskin farqlanadi va uning hududiy xususiyatlari turli omillar ta'sir qilgan. 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, respublika qishloq tumanlari aholisining o'sish sur'atlari bo'yicha shartli ravishda 3 ta, ya'ni yuqori, o'rta va past guruhga ajratish mumkin. 1990–2023-yillarda aholi o'sish sur'ati yuqori (180,0 % va undan yuqori) bo'lgan guruhdan Qoraqalpog'istonning 4 ta janubiy tumani (Amudaryo, Beruniy, To'rtkul va Ellikqal'a) joy egallagan. Mazkur tumanlarda aholi o'sishi yiliga o'rta hisobda 2,0 % ga yaqin bo'lgan.

Ikkinci guruh tarkibiga kiritilgan, aholi soni 150,0–180,0 % oralig'ida o'sib borgan hududiy birliklar soni jami 7 tani tashkil qiladi. Ular qatoriga respublika poytaxti Nukus shahri bilan birgalikda Kegeyli, Chimboy, Shumanoy, Qorao'zak, Qonliko'l tumanlari ham kiradi. Uchinchi guruhdagi, aholi o'sish sur'atlari 150,0 % dan past bo'lgan tumanlar qatoridan Mo'ynoq, Xo'jayli, Nukus, Taxtako'pir, Qo'n'iroq, Bo'zatov tumanlari joy egallagan.

Umuman olganda, Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlarida aholi o'sish sur'atlari ancha sekin, hattoki kamayish tendensiyasi kuzatilayotgan hududlari ham bor. Bu, asosan, Orolbo'y mintaqasidagi noxush ekologik vaziyat tufayli vujudga kelgan migrations vaziyat bilan bog'liq. Bu boroda eng muammoli vaziyat Taxtako'pir tumaniga xos bo'lib, 2000-yil boshida bu tumanda 44,3 ming aholi istiqomat qilgan holda, 2024-yil boshiga kelib, bu raqam 38,9 ming kishini tashkil qilgan. Ayni paytda, respublikaning janubidagi To'rtkul, Beruniy, Ellikqal'a va Amudaryo tumanlarida aholining ko'payishi ancha yuqori.

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisi soni (ming kishi hisobida, yil boshiga)

	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2020-y.	2024-y.	1990–2024-yillarda aholi o'sishi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1241,5	1503,0	1632,0	1898,3	2002,7	161,3
Nukus sh.	207,5	248,9	271,5	319,6	339,2	163,5
tumanlar:						
Amudaryo	110,4	139,1	163,5	199,2	212,1	192,1
Beruniy	112,1	141,5	159,1	191,4	205,1	182,9
Bo'zatov	16,6	19,7	-	21,5	21,9	131,9
Qorao'zak	36,1	43,3	45,1	52,8	54,4	150,7
Kegeyli	49,4	58,2	79,5	72,4	74,8	151,4
Qo'ng'irot	91,7	108,5	115,5	129,9	136,0	148,3
Qonliko'l	30,3	38,6	43,8	50,9	53,8	177,5
Mo'ynoq	25,4	28,7	28,3	31,8	33,6	132,3
Nukus	43,0	42,7	47,0	50,2	53,9	125,3
Taxiatosh	44,2	51,6	47,8	73,8	76,8	173,8
Taxtako'pir	39,3	44,0	39,3	40,2	38,9	98,9
To'rtkul	118,4	152,1	175,4	214,3	228,8	193,2
Xo'jayli	164,4	195,3	143,6	122,7	128,7	78,3
Chimboy	74,2	89,8	101,9	112,3	115,7	155,9
Shumanoy	37,2	41,3	40,7	56,2	58,0	155,9
Ellikqal'a	85,5	111,3	130,0	159,1	171,0	200,0

Jadval statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.


Izoh. 1. Bo'zatov tumani 2004-yilda tugatilib, hududi Kegeyli va Chimboy tumanlari tarkibiga kiritildi, 2019-yilda esa qayta tiklandi.

2. Taxiatosh shahri 2013-yilgacha Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yusuvidagi shahar bo'lgan. 2013-yilda Taxiatosh shahri Xo'jayli tumani tarkibiga kiritildi. 2017-yilda esa Xo'jayli tumani hududidagi 3 OFY bilan Taxiatosh shahri birlashtirilib Taxiatosh tumani tashkil etildi.

Tug'ilish va o'lim jarayonlariga aholining turmush sharoiti, ta'lif va urbanizatsiya darajasi, tabiiy-ekologik sharoiti, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan demografik siyosati, nikoh va ajralishlar ko'lami, yoshlarning o'z oilalarini ongli ravishda rejalashtirishi va ularning har xil kontraseptiv vositalardan foydalanishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb qilinganligi, aholining milliy va etnik tarkibi, shuningdek, diniy e'tiqodi hamda urf-odatlari kabi qator omillar katta ta'sir qiladi.

Qoraqalpog'istonda tug'ilish 2023-yilda 44021 kishini tashkil qildi, tug'ilish koeffitsienti esa mos ravishda 22,1 promillega teng bo'lgan. Tug'ilishning nisbatan yuqori darajasi Ellikqal'a (25,9 %), Nukus (25,8 %), Beruniy (25,7 %) va Amudaryo (24,3 %) tumanlarida kuzatilgan. Aksincha, Shumanoy, Taxtako'pir, Mo'ynoq, Kegeyli, Qorao'zak va Bo'zatov tumanlarida tug'ilish darajasi respublika darajasidan ancha past. Bu borada eng past ko'rsatkich Shumanoya tegishli bo'lib, mingta aholiga 17,3 ni tashkil etgan (1-rasm).

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'istonda 10099 ta o'lim holati qayd qilingan va har 1000 ta aholiga hisoblaganda 5,1 promilleni tashkil qilgan. Ekologik vaziyatning o'ziga xos hududiy xususiyatlarga bog'liq ravishda o'lim darajasi respublikada katta hududiy tafovutlarga ega. Masalan, o'rganilayotgan davrda eng yuqori ko'rsatkich Taxtako'pir (8,5 %), Qorao'zak (7,3 %), Chimboy (7,2 %) va Nukus (6,2 %) tumanlarida kuzatilgan. Taxtako'pir tumani mazkur jarayon bo'yicha nafaqat Qoraqalpog'iston balki O'zbekiston Respublikasining boshqa ma'muriy birliklaridan ham oldinda turadi.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining tabiiy harakati ko'rsatkichlari (2023-yil yakunlari bo'yicha)

Rasm Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, o'lim darajasi Orol dengizidan uzoqlashgan sari, ya'ni shimoldan janubga farqlanib boradi. Nafaqat so'nggi yillarda, balki 2000–2005-yillar oraliq'ida ham aholining umumiyl o'limi shimoliy tumanlarda o'rtacha 7,0 promille, markaziy tumanlarda 6,5 va janubiy tumanlarda 5,5 promilleni tashkil etgan.

Aholi tabiiy harakatiga go'daklar o'limi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi sabablarga - yuqumli kasalliklar, nafas olish a'zolari kasalligi, ovqat xazm qilish a'zolari xastaligi, tug'ma kamqonlik, perinatal davridan o'tishdagi ayrim holatlar, baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohat kabilalar misol bo'lishi mumkin. 2023-yilda Qoraqalpog'iston bo'yicha go'daklar o'limi (1 yoshgacha) ming tirik tug'ilishga nisbatan 11,6 tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkich Nukus shahrida 24,3, Qorao'zak tumanida 15,9 va Shumanoyda 14,8 bo'lgan. Shuningdek, Kegeyli va Qo'ng'iroq tumanlarida ham ancha yuqori.

Umuman olganda, 2023-yilda respublikada tabiiy o'sish 17,0 promillega teng bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichlar Ellikqal'a (21,4 %), Beruniy (21,3 %), Nukus (19,6 %) va Amudaryo (19,3) % tumanlarida nisbatan yuqori. Aksincha, Taxtako'pir (10,1 %) va Shumanoy (11,9 %) tumanlarida kichik ko'rsatkichga ega.

Shuningdek, ko'chib keluvchi yoki ko'chib ketuvchi aholi, aniqrog'i - migratsiya hududning nafaqat demografik, balki ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Aholi migratsiyasi natijasida uning mavjud va doimiy miqdorida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi ko'chib ketgan joylarda aholining yosh-jins, milliy tarkibida o'zgarishlar bo'ladi, uning "qarishi" yuz beradi. Bunday joylarda tug'ilish ko'rsatkichlari pasayadi, o'lim darajasi ortadi, umuman olganda, demografik jarayonlar keskinlashadi. Ayni vaqtida ko'chib kelgan joylarda ham aholining yosh-jins va milliy tarkibi o'zgaradi, uning "yosharishi" kuzatiladi. Aholi migratsiyasining asosiy xususiyatlaridan yana biri, uning kuchli saralab olish (selektivlik) xususiyati borligidir. Bunda aholining malakali mutaxassislari faol qatnashadi [6].

Qoraqalpog'istonda aholi migratsiyasining natijasi o'tgan asrning 90-yillarigacha ijobiy bo'lib, tabiiy ko'payishning yuqoriligi tufayli aholi sonining o'sishi juda tez bo'lgan. Sobiq Ittifoqning parchalanishi migratsiya jarayonining tezlashishiga olib kelgan. Orol dengizining qurib borishi tufayli nochor ekologik vaziyatning vujudga kelishi va buning oqibitlarining tabiatga, xusan, aholi salomatligiga jiddiy ta'siri hududda etnik va ekologik migratsyaning avj olishiga olib kelgan.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi aholining migratsion faolligi yuqori bo'lgan hududlar sirasiga kiradi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, mintaqaga doimiy yashash uchun ko'chib kelganlar jami soni 8399 kishini (har ming aholiga ko'chib kelish koeffitsienti 4,2 promille) va doimiy

yashash uchun mintaqadan ko'chib ketganlar 15875 kishini (har ming aholiga ko'chib ketish koeffitsienti 8,0 promille) tashkil qilgan. Migratsiyaning saldosi minus 7476 kishiga teng. Bu jihatdan Qoraqalpog'iston O'zbekiston Respublikasida eng oldingi o'rinda turadi. Mazkur jarayon ikki yo'nalishda, ya'ni ichki va tashqi migratsiya shakllarida amalga oshadi. Jumladan, jami ko'chib kelganlarning 2,5 % (212 kishi) xorijiy mamlakatlardan kelganlar tashkil etadi. Tahlil qilinayotgan yilda Qozog'istondan 180 kishi, Turkmanistondan 16 kishi, Rossiyadan 12 kishi, Tojikistondan 1 kishi va boshqa davlatlardan 3 kishi doimiy yashash uchun kelgan. Ko'chib kelganlarning 33 foizini erkaklar va 67,0 foizini ayollar tashkil qilgan.

Shuningdek, 2023-yilda Qoraqalpog'istonдан xorijga ko'chib ketganlarning soni 6959 kishiga teng bo'lgan va bu jami ko'chganlarning 43,8 % i demakdir. Xorijga ko'chib ketganlar Qozog'istonga (6894 kishi), Rossiyaga (40 kishi), Turkmanistonga (7 kishi), Qirg'izistonga (7 kishi) va boshqa davlatlarga (11 kishi) ketishgan.

Statistik ma'lumotlar tahlili ko'rsatishicha, Qoraqalpog'istonning barcha ma'muriy birliklarida (Nukus shahri va qishloq tumanlari) migratsiya saldosi manfiy bo'lgan. Ayniqsa, migratsiyaning minus saldosi Chimboy, Xo'jayli, Qo'ng'iroq, Taxtako'pir tumanlari va Nukus shahrida ancha yuqori.

Respublika poytaxti Nukus shahriga o'rganilayotgan davrda jami 2852 kishi doimiy yashash uchun kelgan, ulardan respublikaning boshqa hududlaridan 2831 kishi, xorijiy mamlakatlardan esa 21 kishi ko'chib kelgan. Xo'jayli tumaniga 648 kishi kelgan, 631 kishi ichki migratsiya hisobiga, 17 kishi xorijiy davlatlardan. Nukus tumanidagi ko'rsatkichlar, mos ravishda, 723; 701; 22 kishiga teng. Ayni vaqtda, Nukus shahridan jami ko'chib ketgan 3538 kishi, ulardan 2002 kishi respublikamiz boshqa hududlariga, xorijga esa 1536 kishi. Qishloq tumanlaridan eng ko'p ko'chib ketganlar Xo'jayli (1484 kishi), Chimboy (1331 kishi), Qo'ng'iroq (1280 kishi), Kegeyli (787 kishi), Taxtako'pir (705 kishi) tumanlariga tegishli. Xorijiy mamlakatlarga Xo'jayli, Qo'ng'iroq, Chimboy va Taxtako'pir tumanlaridan ko'chish yuqori bo'lgan.

Aholi tabiiy harakatiga uning jinsiy tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jinslar o'rtasidagi nomutanosibliklar demografik jarayonlarga, xususan tug'ilish ko'rsatkichining o'zgarishiga sabab bo'ladi. 2024-yil 1-yanvar holatiga Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisining 50,2 % (1005,9 ming kishi) erkaklar, 49,8 % (996,8 ming kishi) ayollardan iborat bo'lgan.

Aholi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 101,4 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib 31,9 ming kishini tashkil qilgan. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 0-4 yoshli bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 95,7 ming kishini, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 36,9 ming kishini bo'lgan.

Ma'lumki, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarning joylashgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining turlichaligi ularda aholi milliy tarkibining ham xilma-xil bo'lishiga sabab bo'lgan. Jumladan, qo'shni davlatlar bilan chegaraga yaqin hududlarda mazkur davlatlar uchun xos bo'lgan millatlar ulushining ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Rusiyabzon xalqlari, odatda, sanoat shaharlarda, shuningdek yirik shaharlar atrofida birmuncha ko'proq o'rashadi. Ayrim hollarda ushbu holatning vujudga kelishiga mintaqalarning tarixiy taraqqiyot davrlari, ya'ni mazkur hududlarda yagona davlat boshqaruvining mavjudligi va keyinchalik bo'linib ketganligi ham sabab bo'lgan.

Aholining milliy tarkibida, 01.01.2021-yil ma'lumotlari bo'yicha, o'zbeklar 40,4 %, qoraqalpoqlar 37,0 %, qozoqlar 15,0 %, turkmanlar 5,4 %, ruslar 0,5 %, boshqa millat vakillari 1,2 % ni tashkil etgan. O'zbeklar ulushi respublika janubidagi Amudaryo (86,3 %), Ellikqal'a (80,7 %), Beruniy (69,2 %) va To'rtko'l (62,8 %) tumanlarida yuqori.

Qoraqalpoqlar Nukus shahri va ko'pchilik tumanlarda aholining milliy tarkibida yetakchi o'ringa ega bo'lib, Chimboy, Bo'zatov va Kegeyli tumanlarida, ayniqsa, katta ustunlik bilan ko'pchilikni tashkil qiladi (uchala tumanda ularning ulushi 80 % dan yuqori). Taxtako'pir tumani aholisining 42,2 % aholisini qozoqlar tashkil qilsa, Mo'ynoqda qozoqlar salmog'i 30 % atrofida. Turkmanlarning salmog'i To'rtkul tumanida 24,3 %, Shumanoyda 7,8 %, Beruniy, Xo'jayli va Taxiatosh tumanlarida 7,4 %, Ellikqal'a tumanida esa 6,7 % ga teng.

Qoraqalpog'iston qishloq ma'muriy tumanlari o'zlarining aholi soni bo'yicha keskin farqlarga ega. Eng ko'p aholi soniga ega To'rtkul tumanida 228,8 ming aholi istiqomat qiladi. Shuningdek, Amudaryo, Buruniy tumanlarining har birida aholi 200 mingdan ortiq yashaydi. Aksincha, Bo'zatov (21,9 ming), Mo'ynoq (33,6 ming) va Taxtako'pir (38,9 ming) tumanlari aholisi 50,0 mingga ham yetmaydi. Shu bilan birga, Qonliko'l, Nukus va Shumanoy tumanlarining aholisi 50,0-60,0 ming


MAXSUS SON

kishi atrofida. Ellikqal'a, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'irot tumanlarining aholisi 100 mingdan ko'p. Aholi soni eng ko'p To'rtkul va eng kam Bo'zatov tumanlarining aholi sonidagi farqlanishi 10,4 martaga teng.

Aholi zichligi ma'lum bir hududda joylashgan aholi sonini ifodalovchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy mezon bo'lib, kishilar hayot kechiradigan va ishlab chiqarish tashkil etilgan tabiiy resurslar manbai hisoblangan hudud o'rtafigi munosabatlarni yoritadi. "Aholi zichligi hududning mavjud sig'imini tasniflaydigan ma'lum ko'rsatkich - bu aholi sonining u egallagan hududga bo'lgan nisbatida namoyon bo'ladi" [5]. Aholi zichligidagi katta tafovutlarning mavjudligiga, birinchidan, hududning aholisi soni va ular maydonlarining katta kichikligiga, ikkinchidan, aholining tabiiy ko'payishi, yerning xo'jalik maqsadida o'zlashtirilganligiga xo'jaligining ixtisoslashuviga bog'liq. Shu bois, aholi zich joylar ko'proq o'zlashtirilgan hamda qishloq xo'jaligida intensiv foydalaniladigan joylar hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi zichligi 1 km² ga 12 kishi. Bu ko'rsatkich Nukus shahri (1541,8 kishi) va uning atrofida hamda intensiv dehqonchilik rivojlangan hududlarda ancha yuqori (2-rasm). Taxiatosh tumanida aholi zichligi har kv.kmga 426,7, Xo'jaylida 234,0 va Amudaryo tumanida 208 kishi to'g'ri keladi. Aksincha, Mo'ynoqda bor-yo'g'i 1 kishi, Qo'ng'irot va Taxtako'pirda 2 kishiga yaqin, Qorao'zakda 9 kishi, Bo'zatovda deyarli 11 kishiga teng. Qolgan tumanlarning bu boradagi ko'rsatkichi respublika ko'rsatkichidan yuqori.

Aholi zichligi hududlarning doimiy aholi istiqomat qiladigan, aniqrog'i sug'oriladigan yerlarga nisbatan hisoblansa, real vaziyatni yaqqol namoyon qiladi. Qoraqalpog'istonda dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar (ekin yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar va tomorqa yerlarining yig'indisi) maydoni 479278 getktarni tashkil qiladi (1.01.2023-y.).



2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlarida aholi zichligi (2023 yil ma'lumotlari bo'yicha)

Rasm muallif tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi zichligini faqat o'sha toifadagi yerlarga nisbatan hisoblab, uning "netto" zichligini aniqlash maqsadga muvofiq. Qoraqalpog'istonda bunday zichlik 1 ga maydonga 4,18 kishi, 1 km²ga esa 418 kishiga tengdir. Aholining bunday zichligi Taxiatosh, To'rtkul, Ellikqal'a, Amudaryo, Beruniy va Xo'jayli tumanlarida 1 km² yerga nisbatan 500 kishidan yuqori, Mo'ynoq, Qo'ng'irot, Chimboy va Kegeyli tumanlarida 200-500 kishi oralig'ida, Bo'zatov, Qorao'zak, Shumanoy, Qonliko'1 va Nukus tumanlarida esa 100-200 kishini tashkil etadi. Qolgan tumanlarda ushbu ko'rsatkich 100 kishidan past.

Qoraqalpog'iston jami aholisidan 978,2 ming kishi 12 ta shahar va 26 ta shaharchalarda yashaydi. Respublikaning urbanizatsiya darajasi 48,8 % teng. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi aholisi eng katta bo'lgan shahar, uning poytaxti Nukus bo'lib, unda 339,1 ming aholi istiqomat qiladi (Nukus shahar hokimiyatiga bo'ysinuvchi Qoratov shaharchasini qo'shgan holda, 01.01.2024-y.).

Nukus yirik shaharlar (aholisi 250-500 ming kishiga teng) toifasiga kiradi. Ayni paytda, Qoraqalpog'iston urbanistik tarkibida katta (100-250 ming kishilik aholiga ega bo'lgan) shaharlar bo'g'ini shakllanmagan.

Xo'jayli shahrida 75,5 ming kishi, To'rtkulda 67,2 ming kishi, Beruniyda 66,7 ming kishi, Chimboyda 56,4 ming kishi, Taxiatoshda 52,2 ming kishi istiqomat qiladi. Mazkur shaharlar o'rta shaharlar toifasini hosil qilgan holda, ko'pincha tumanlararo xizmat ko'rsatish markazi funksiyalarini bajaradi. Ularning salohiyati o'zining tumanidan tashqari yonidagi qo'shni tumanlarga ham xizmat ko'rsata olishda ko'rindi. Bu ayniqsa, Qo'ng'irot, Xo'jayli va Chimboyda aniq namoyon bo'ladi. Masalan, Chimboy shahri Qorao'zak, Taxtako'pir, Bo'zatov va Kegeyli tumani aholisiga ham xizmat ko'rsatadi. Mintaqadagi qolgan shaharlar kichik shaharlar toifasiga kiradi.

Respublikada jami 26 ta shaharcha mavjud bo'lib, ulardan 15 tasining aholisi 5,0 ming kishigacha, 5 tasining aholisi 5,0-10,0 ming kishiga teng bo'lsa, 5 tasi, o'z navbatda, 10,0-20,0 ming kishi oralig'idagi, 1 tasi esa 20,0-50,0 ming kishi oralig'idagi aholi soniga ega. Shaharchalar soni Qo'ng'irot va To'rtko'l tumanlarida 6 tadan, Amudaryoda 5 ta, Beruniy, Kegeyli, Chimboy, Xo'jayli, Taxiatoshda 2 tadan, qolgan barcha tumanlarda 1 tadan shaharcha mavjud, xolos.

Ma'lumki, aholi joylanishi o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, tabiiy omillar va tarixiy rivojlanish asosida ro'y beradi. Qoraqalpog'iston qishloq aholisining joylanishida ushbu omillarning barchasi bevosita ta'sir etsada, tabiiy omilning ahamiyatini yuqori deb baholash mumkin [4].

Qoraqalpog'istonda qishloq aholi punktlari juda notekis joylashgan, uning asosiy qismi Amudaryo deltasida, dehqonchilik maqsadida foydalaniladigan yerlarga to'g'ri keladi. Respublikaning katta qismini egallab yotgan Ustyurt platosi, Qizilqum cho'li va Orol dengizining qurigan qismi – Orolqum cho'lida esa deyarli doimiy aholi manzilgohlari mavjud emas. Ushbu hududlarda aholi faqatgina magistral temir yo'l va qazilma konlariga yaqin hududlarda, shuningdek, qisman cho'llarda mavsumiy chorvodorlar yashaydilar.

Qoraqalpog'istonda, 1.01.2024-yil holatiga ko'ra, 1126 ta qishloq aholi punktlari mavjud bo'lib, ularning har biriga o'rtacha 909,8 kishidan aholi to'g'ri keladi.

2-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq aholi punktlarining tarkibiy tuzilishi (01.01.2024-y)

QAP	QAP		Aholisি	
	soni	foizda	ming kishi	foizda
Jami	1126	100,0	1024473	100,0
Shu jumladan, aholi soni bo'yicha				
500 kishigacha	530	47,1	141205	13,8
500-1000 kishi	264	23,4	187140	18,3
1000-1500 kishi	123	10,9	150194	14,7
1500-2000 kishi	75	6,7	131424	12,8
2000-3000 kishi	79	7,0	191750	18,7
3000-5000 kishi	47	4,2	176155	17,2
5000 kishi va undan ortiq	8	0,7	46605	4,5

Jadval Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mavjud 1126 ta qishloq aholi punktining 47,1 foizini, ya'ni 530 tasini, aholisi 500 kishigacha bo'lgan qishloqlar tashkil qiladi. Ularda jami 141205 kishi istiqomat qilgan holda, mazkur guruhdagi har bir qishloqqa o'rtacha 266 kishidan aholi mos keladi. Aholisi 500-1000 kishi bo'lgan guruhdan 264 ta qishloq joy olgan bo'lib, ularda jami respublika qishloq aholisining 18,3 foizi istiqomat qiladi. Shuningdek, uchinchi (1000-1500 kishi) guruhda 123 ta, to'rtinchchi guruhda 75 ta, beshinchchi guruhda 79 ta qishloqlar mavjud. Aholisi 3000-5000 kishilik bo'lgan qishloqlar Qoraqalpog'istonda 47 tani tashkil qiladi. Eng katta aholisi 5000 dan ortiq bo'lgan qishloqlar 8 taga teng bo'lib, ularda jami 46605 kishi yashaydi. Mazkur guruhdagi har bir qishloqqa o'rta hisobda 5826 aholi to'g'ri keladi.

Qishloqlarning katta-kichikligi bo'yicha respublika o'ziga xos tafovutlarga ega. Kegeyli, Qorao'zak, Chimboy, Shumanoy va Taxtako'pir tumanlarida asosan mayda, aholisi 500 kishigacha bo'lgan qishloqlar katta ustunlikka ega. Masalan, Kegeyli tumanida jami 130 ta qishloqdan 105 tasi, Chimboyda 115 tadan 85 tasi, Qorao'zakda 97 tadan 77 tasi, Shumanoya 104 tadan 73 tasi

MAXSUS SON

mayda qishloqlardan iborat. Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Kegeyli tumanida aholisi 1500 va undan ortiq bo'lgan qishloqning o'zi yo'q. Taxtako'pir va Shumanoyda esa 2000 ming va undan ortiq aholiga ega qishloq mavjud emas. Tabiiyki, bu yerdagi qishloqlar, mavjud ekologik, iqtisodiy geografik vaziyat tufayli, aholisi soni jihatidan kichik qishloq (ovullar)dan iborat. Shu bilan birga, bunday qishloqlar aholisining kamligi ayniqsa mazkur tumanlarning cho'llik xususiyatini o'zida aks ettiradi. Ta'kidlash joizki, qishloq aholi manzilgohlarining katta-kichikligi unda yashovchilar uchun qulay shart-sharoitni barpo etishda yaqqol ifodalananadi. Bunday aholi punktlarida ta'lim va tibbiyot, savdo va servis sohalarini rivojlantirish ancha qiyin. Kichik aholiga ega bo'lgan qishloqlarda maktab yoki sog'liqni saqlash tizimlarining boshlang'ich bosqichlarini tashkil etish mumkin, xolos. Ayni vaqtida, mayda va tarqoq, bir-biridan ancha olisda joylashgan qishloqlarda transport xizmatini yaxshilash ham muammolidir.

Umuman olganda, katta qishloqlar respublikaning janubiy qismida joylashgan Ellikqal'a, To'rtkul, Beruniy va Amudaryo tumanlariga tegishli. Beruniy tumanining 16 ta, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlarining 11 tadan qishloqlari aholisi 3000 dan ortiq bo'lgan guruhga kiradi.

Aholi joylanishi va zichligiga turli omillar ta'sir etadi. Bunda iqtisodiy omilning roli juda yuqori bo'lib, ya'ni ishlab chiqarishda ishtirok etuvchilar va ishlab chiqarishning o'zining joylanishi muhimdir [3; 55-6].

Qishloq aholi manzilgohlari joylashuvi to'g'risidagi eng umumi, batafsil tasavvurni aholi puktalarining o'rtacha zichlik ko'rsatkichi beradi (Kovalev S.A., 1963, 15-b). Qishloqlar orasidagi o'rtacha masofa va zichlik ko'rsatkichi Qoraqalpog'istonagi mavjud barcha qishloq aholi manzilgohlari bo'yicha turlicha. Qoraqalpog'istonda har 1000 kv. kmga 6,8 ta qishloq mos keladi. Mazkur vaziyat tumanlar darajasida juda katta farqlarga ega. Masalan, 1000 kv km hududga Taxiatoshda 166,7, Kegeylida 141,3, Shumanayda 133,3, Amudaryoda 126,5, Xo'jaylida 114,5 to'g'ri kelgan holda, Qo'ng'irot va Mo'ynoqda 0,6, Taxtako'pir tumanida 1,8 qishloq to'g'ri kelgan.

XULOSA

Umuman olganda, "... qishloq manzilgohlarining vujudga kelishi, tarkibiy va hududiy tuzilishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini muntazam o'rganib borish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu, eng avvalo, qishloq aholisining kundalik turmush sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi madaniy-maishiy (ijtimoiy) va ishlab chiqarish infrastrukturasi elementlari tizimini barpo qilishda ko'zga tashlanadi" [8;65-6].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-som "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.
3. Асанов Г.Р. Сельское расселение Наманганской области.-Т.: "Фан", 1975.
4. Soliev A.S., Nazarov M.I. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009, - 212 b.
5. Tojieva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 276 b.
6. Qurbonov Sh.B. O'zbekiston qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Monografiya. – T.: Mumtoz so'z, 2019. – 226 b.
7. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Darslik. – Toshkent: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 382 b.
8. Qishloq joylar demografiyasi / Prof. A.S. Soliev tahriri ostida. – Toshkent, 2005. – 138 b.
9. Ковалев С.А. Сельское расселение. (Географическое исследование).-М.: МГУ, 1963.
10. www.qrstat.uz [Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].